

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDUNAZAROVA ZAYNAB ALMUROD QIZI

**IMITATION MODELAR ASOSIDA IJTIMOYIY-
KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(ona tili darslari misolida)**

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ona tili) (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Abdunazarova Zaynab Almurod qizi

Imitatsion modellar asosida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (ona tili darslari misolida) 5

Абдуназарова Зайнаб Алмурод кизи

Совершенствование методики развития социально-коммуникативной компетенции на основе имитационных моделей (на примере уроков родного языка)23

Abdunazarova Zaynab Almurod kizi

Improving the methodology for developing social and communicative competence based on simulation models (using native language lessons as an example) 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 52

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDUNAZAROVA ZAYNAB ALMUROD QIZI

**IMITATION MODELAR ASOSIDA IJTIMOYIY-
KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(ona tili darslari misolida)**

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ona tili) (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2024.3.PhD/Ped4695 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Termiz davlat pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.terspi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurullayeva Shahlo O'ktamovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich
pedagogika fanlari doktori, professor,

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich
pedagogika fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "29" may kuni soat 10:00 dagi 3-son majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190111, Termiz tumani. "Yangiobod" MFY At-Termiziy ko'chasi, 1A-uy. Tel: (376) 221-93-56; faks: (376) 221-93-56, e-mail: terdpi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz tumani. "Yangiobod" MFY At-Termiziy ko'chasi, 1A-uy. Tel: (376) 221-93-56; faks: (376) 221-93-56, e-mail: terdpi@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "16" may kuni tarqatildi.
(2025-yil "16" may dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.A.Kuldasheva
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

M.K.Ismailov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d., (PhD)

O'.N.Sultonova
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda amalga oshayotgan globallashuv jarayonlari hamda ko'pmillatli jamiyatning kengayib borayotganligi shaxs ijtimoiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, shaxslararo munosabatlarni tarkib toptirish, polimadaniy muhitda jamoaviy munosabatlarga doir bolalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish jarayoniga o'ziga xos talablarni qo'yimoqda. XXI asrda ta'limga asosiy e'tibor qaratib kelayotgan, Singapur, Xitoy, Angliya, Finlyandiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi ta'lim tizimi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarida 4K tamoyilini o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik, ijtimoiylashuv, kommunikativlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berib¹, kichik maktab yoshi o'quvchilarning til hodisalariga nisbatan o'ta sezgirligi, nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarni o'zlashtirishda qulay davr ekanligini inobatga olgan holda ma'naviy-madaniy rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion o'qitish texnologiyalarini tatbiq etib kelmoqdalar.

Dunyo mamlakatlari kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi ilg'or tendensiyalardan biri olamni anglashda "Men" va "O'zga inson" konsepsiyasi doirasida faoliyat yuritish tendensiyasi ustuvorlik qilib, ushbu tendensiya shaxs o'zligini anglashi va saqlashi hamda ijtimoiy muhit bilan muloqotga kirishuvi faollashadi, "shaxs va jamiyat" munosabatlarini tartibga solishga yordam beradi. Shaxs kommunikativligini oshirishga qaratilgan ta'limning pragmatik, formalistik va paradigmal konsepsiyalarning asosini ham shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan modellar tashkil etadi. Shunga ko'ra kommunikativ kompetentlik masalasi psixologiya, pedagogika, lingvistik ta'limga qaratilgan tadqiqotlarning asosiy muammolaridan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Mamlakatimizda o'quvchilar kommunikativ kompetentligini oshirish muammolariga ta'lim sifatini oshirish, jamiyat a'zolarining faolligini oshirish, ta'limga kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyasini tatbiq etish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktab ta'limini takomillashtirish, "... ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish²" bugungi kunning dolzarb masalasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2008-yil 15-iyuldagi "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-916-son, 2017-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" PQ-3304-son, 2019-yil 20-fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4199-son, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish

¹ https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000370064_rus

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/maktab-talimini-rivozhlantirish-umumkhal-arakatiga-aylanishi-23-08-2019>.

chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3151-son, 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4306-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" VM-187-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxs sifatlarini tarkib toptirish, bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash, bolalarni kichik maktab yoshidan atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni qaror toptirish, ta'lim muassasalarida bolalarni jamoaviy munosabatlarda ijtimoiylashtirish masalalari respublikamiz olimlaridan O.Musurmonova, A.Muxsiyeva, S.Nishonova, H.Norqulov, Sh.Shodmonova, Z.Abdinazarova, O.Aslanova, Sh.Nurullayeva, F.Qodirova, B.Djurayeva, H.Tojiboyeva, G.Nazirova, N.Rejametova, A.Xo'jaqulovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan shaxs va jamoa o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammosiga yangicha yondashuvlar masalasi N.Annenkova, G.Baturina, D.Bogoyavlenskaya, T.Boguslavskaya, L.Vigotskiy, Y.Gippenreyter, V.Demchenko, L.Zankov, V.Znakov, F.Kevlya, T.Lodkina, A.Leontyev, P.Lesgaftlar tomonidan o'rganilgan.

Bolalarning ijtimoiy hayotga moslashish imkoniyatlarini kengaytirish asosida ularni har tomonlama rivojlantirish muammosi xorijlik olimlardan M.Montessori, Jan Piaje, S.Holland, Henning Gibbons, G.V.Leonidova, R.B.McCall va C.J.Groark, J.E.Schmid va S.Pollack, K.White va boshqa turli soha vakillarining ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Termiz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi tarkibiga kiruvchi "Boshlang'ich ta'limga o'quvchilar bilimini o'stirish va umumiy rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlari" (2022-2025 yy.) mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni shakllantirish mazmunini tahlil qilish va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

o‘quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini aniqlashga doir tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang‘ich sinf ona tili darslarida imitatsion modellardan foydalanib o‘quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Xorazm viloyati Urganch shahar 4-, 6-umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, Urganch tumanidagi 36-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi 1-, 21-, 55-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, Surxondaryo viloyati Termiz shahar 9-, 11-, 15-umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridan jami 653 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi, imitatsion modellar, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida nazariy, retrospektiv va qiyosiy tahlil, empirik tajribalar, pedagogik kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, modifikatsiyalangan diagnostik metodikalar, matematik statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikka oid ko‘nikmalar (muloqot jarayonini loyihalash, ijtimoiy refleksiya)ni rivojlantirishda obyektiv va subyektiv omillar ta‘sir darajasining ustuvorligi o‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlar tizimiga oid vitagenik tajribalarini tahlil qilish orqali aniqlashtirilgan

boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik modeli mazmuni muloqot jarayonini loyihalash va ijtimoiy refleksiyaning shakllantirishga xizmat qiluvchi imitatsion mashqlarni tatbiq etish orqali takomillashtirilgan;

boshlang‘ich ta‘lim ona tili darslarida o‘quv maqsadlarini identifikatsiyalash hamda “Imitatsion dastur”ning produktivligini ta‘minlash orqali o‘quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

boshlang‘ich ta‘lim ona tili darslarida diagnostik metodikalarni modifikatsiyalash orqali o‘quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik modeli va faoliyat metodikasining samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik rivojlanganligini belgilovchi mezon va daraja ko‘rsatkichlari aniqlangan;

boshlang‘ich ta‘lim jarayonida imitatsion modellardan foydalangan holda o‘quvchilar ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni ta‘minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar aniqlangan va faoliyat modeli ishlab chiqilgan;

ona tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga doir imitatsion modellar ishlab chiqilgan va tizimlashtirilgan;

“Pedagogik kasbiga kirish” nomli darslik hamda “Pedagogik mahorat” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullarning ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shaxs ijtimoiy-kommunikativ kompetentligi muammosiga doir falsafiy, psixologik va pedagogik qarashlar tahlili tizimlashtirilganligi, ta‘lim jarayonini modellashtirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirilganligi hamda ushbu ma‘lumotlardan pedagogik, psixologik tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga doir imitatsion modellar ishlab chiqilganligi, ulardan foydalanish metodikasi va modeli takomillashtirilganligi hamda ushbu metodik tavsiyalardan boshlang‘ich ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishda amaliy foydalanish imkoniyatining mavjudligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida imitatsion modellardan foydalanib o‘quvchilar ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishi natijalari asosida:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikka oid ko‘nikmalar (muloqot jarayonini loyihalash, ijtimoiy refleksiya)ni rivojlantirishda obyektiv va subyektiv omillar ta‘sir darajasining ustuvorligini o‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlar tizimiga oid vitagenik tajribalarini tahlil qilish orqali aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalardan “Pedagoglik kasbiga kirish” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-son buyrug‘i, №391213 raqamli guvohnoma). Natijada, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni shaxslararo munosabatlarga doir psixologik-pedagogik tajribalar bilan boyitilishiga erishilgan;

boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik modeli mazmuni muloqot jarayonini loyihalash va ijtimoiy refleksiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi imitatsion mashqlarni tatbiq etish orqali takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar “Pedagogik mahorat” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-son buyrug‘i, №391215 raqamli nashr guvohnomasi) Natijada, pedagogik ta‘lim mazmuni ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga doir ilmiy va metodik tavsiyalar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

boshlang‘ich ta‘lim ona tili darslarida o‘quv maqsadlarini identifikatsiyalash hamda “Imitatsion dastur”ning produktivligini ta‘minlash orqali o‘quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlashtirish, shuningdek, boshlang‘ich ta‘lim ona tili darslarida diagnostik metodikalarni modifikatsiyalash orqali o‘quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik modeli va faoliyat metodikasining

samaradorligini oshirishga oid xulosalardan pedagogik eksperiment davomida foydalanilgan va samarador ekanligi aniqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazining 2024-yil 2-dekabrda 01/11-6-1047-son ma’lumotnomasi). Natijada, imitatsion paradigma asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-kommunikativ kompetentligining rivojlantirilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi: Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 19 ta maqola, OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta jumladan, 6 ta xorijiy hamda 3 ta respublika ilmiy jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 122 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, ob‘ekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan

Dissertatsiyaning **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bola shaxsini shakllantirishda shaxsiy va jamoaviy muammolar, ushbu jarayonning psixologik-pedagogik mazmuni izohlangan. O‘quvchilarning ijtimoiylashuvi va muloqot ko‘nikmalariga doir milliy va xorijiy tajribalar tahlil qilingan.

“Kompetensiya” tushunchasi faylasuf olimlar hamda metodistlar tomonidan keng o‘rganilgan. So‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish hamda ta’limning pragmatik aspektlarini takomillashtirish maqsadida kompetensiyaviy yondashuv muammolariga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Tadqiqotlarda kompetensiya anglash, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va ulardan amalda foydalanish (realizatsiya) jarayoni sifatida talqin etiladi.

Kompetensiyaning nazariy va amaliy aspektlarini kommunikativ kompetensiyaga nisbatan tatbiq etadigan bo‘lsak, til birliklarini o‘zlashtirish, muloqot uslublariga doir nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish, gap tuzish, nutqiy malakalarni egallash jarayoni kompetensiyaning nazariy aspektlarini o‘zida ifodalasa, nutqiy malakalardan kundalik muloqot jarayonida foydalanish nutqiy kompetensiyaning amaliy aspektlari hisoblanadi.

Respublikamizda qabul qilingan davlat ta'lim standartida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim o'zlashtirish darajalari va ijtimoiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablarga muvofiq ijtimoiy-kommunikativ kompetentligiga alohida e'tibor qaratilgan. Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik standartlarda o'z qiziqishlarini o'zga insonlar va ijtimoiy guruhlar ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirishni, ijtimoiy munosabatlarda o'z pozitsiyasi va qarashlarini muloqot madaniyatiga amal qilgan holda himoya qilish ko'nikmalariga egalikni, milliy, diniy, shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarga hurmatni ifodalovchi ko'rsatkich sifatida tavsiflangan.

Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik o'z ichiga ikki tarkibiy komponentni - kommunikativ jarayonni loyihalash va ijtimoiy refleksiyaning qamrab oladi. Bular esa o'z o'rnida quyidagi beshta xususiyatni o'zida namoyon etadi.

Ijtimoiy muhitga *moslashuvchanlik* - insonning o'zi yashab turgan va ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan muhitga moslashuvchanligini, ijtimoiy muhit talablarini qabul qilishini hamda jamiyat talab va ehtiyojlariga moslashuvini anglatadi. Muloqotga kirishish va ijtimoiy moslashuvchanlik o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud bo'lib, ijtimoiy moslashuv muloqotga kirishishdan boshlanadi. O'z navbatida ijtimoiy muhitga moslashgan shaxsning muloqotga kirishuvi ham jadallashadi.

Ijtimoiy vaziyatlarni *tahlil qila bilish* - ijtimoiy kommunikativ kompetentlikning muhim komponenti bo'lib, inson kommunikativ jarayonni tashkil etishi uchun ijtimoiy muhit ishtirokchilari, ijtimoiy vaziyat, sodir bo'layotgan muloqot jarayonining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, ijtimoiy vaziyatning pozitiv va negativ aspektlarini chuqur tahlil qila bilish ko'nikmalarini anglatadi.

Kommunikativ faoliyatni *to'g'ri rejalashtira olish* ko'nikmasi shaxsning muloqotga kirishuvda fikrlarini muloqot vaziyatiga qaratish, muloqot jarayonini tizimli tashkil etish maqsadida aniq ketma-ketligini ishlab chiqishni anglatadi. Kommunikativ faoliyat uchun tuziladigan reja muloqot madaniyati me'yorlariga, muloqot vaziyati talablariga, subyektiv ehtiyojlarga mutanosib bo'lgandagina to'g'ri rejalashtirilgan deyishimiz mumkin.

Kommunikativ jarayon vazifalarini *amalga oshira bilish* muloqot vaziyatiga muvofiq tuzilgan rejaning realizatsiyasini anglatadi. Ya'ni kommunikant muloqot vaziyatini o'rganib chiqadi, ushbu muloqotga kirishishning taxminiy rejasini belgilab olgach ushbu rejani amalga oshirishga kirishadi. Realizatsiya ayni kommunikatsiya jarayonining bevosita amalga oshirishini anglatadi.

Refleksiya (kommunikativ jarayonni tahlil qila bilish) - shaxsning o'z faoliyatini tahlil qila bilishi, xato va kamchiliklarini obyektiv baholash va tuzatishga bo'lgan harakatini anglatadi. Muloqot jarayonida esa kommunikantning muloqot jarayoni tashkil etilganidan so'ng o'z faoliyatini, muloqotdagi ishtirokini, bildirgan fikrlarini va natijalarni tahlil qilishi refleksiv faoliyatni bildiradi.

Ijtimoiy kommunikativ kompetentlik va uning komponentlari shaxs ijtimoiy faoliyatining asosi sifatida juda keng tadqiq etilgan. O'quvchilarning ijtimoiy kommunikativ tayyorgarligi muammosi esa pedagogik muammo sifatida XX asrga kelib o'rganila boshlandi. Ushbu tadqiqotlar ijtimoiy kommunikativ kompetentlikning murakkab tuzilmasi, kommunikativlikning ijtimoiy jarayon bilan bog'liqligini bildiruvchi tushuncha sifatida o'rganilgan. Ushbu muammoning muhimligi shundaki, u shaxsning ham ijtimoiylashuvi, ham kommunikativligini

anglatish bilan bir qatorda, ushbu ikki tushunchaning birlashuvi natijasida yangi ijtimoiy kommunikativ kompetentlik atamasining yuzaga kelishi bilan bog'liqdir.

Shaxsning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligi muammosi sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fani nuqtai nazaridan o'rganilgan. Jumladan, A.A. Bodalev, L.N. Buligina, E.F. Zeyer, I.A. Zimnyaya, S.Y. Kurilova, A.I. Pavlova, V.A. Tishenko, A.V. Xutorskoy, YE.A. Shumilova kabilar o'z tadqiqot ishlarida shaxs kommunikativligini o'rganishgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida "jamo'a - (arabcha - birlashma; uyushma; guruh) muayyan, bir xil ish bajaruvchi kishilar guruhi" sifatida tavsiflangan.

Jamoaviy munosabatlar - odamlarning o'zaro yaqinligi va hamkorligi asosida shakllangan, dunyo xalqlari madaniyatida tarixan shakllanib kelgan ijtimoiy birlikni anglatuvchi tushuncha bo'lib, Pedagogika ensiklopediyasida "Jamoaviylik (arabcha birlashma; uyushma; guruh), yagona jamiyat va kishilar uchun foydali maqsad, faoliyatga ko'ra birlashgan, jamiyat va kishilar manfaatini ko'zlaydigan kishilarning tashkiliy guruhi; kishilarning qadimiy uyushuv shakli" tarzida talqin qilingan.

Bola shaxsini shakllantirishda shaxsiy va jamoaviy muammolar har doim diqqat markazda va juda murakkab bo'lib, turli xil tarixiy davrlarda o'ziga xos ma'no va mazmunga ega bo'lgan. Bu esa ushbu muammoni hal qilishda ustuvorlik bir tomonga yoki boshqa tomonga qaratilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Bu davrlarda pedagogik tizimlar ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ygan yoki "shaxs - jamoa - jamoatchilik" o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga intilishgan.

Jamiyatda shaxsni rivojlanish muammosini ko'rib chiqish uchun "shaxs", "indivud", "individuallik", "jamo'a" va "jamoatchilik" tushunchalarining mohiyatini aniqlashimiz zarur.

"Individ" tushunchasi pedagogik lug'atda "lot. individuum - bo'linmas ma'nosini anglatib, mustaqil, aql ato etilgan mavjudot sifatidagi inson" sifatida ta'riflanadi. "Individuallik" - yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, u konkret odamni boshqa bir konkret odamdan farqlovchi barcha o'ziga xos xususiyatlar majmuini o'z ichiga oladi. Ushbu tushunchaning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "indivudga xoslik, indivudga oid xatti-harakat" ma'nolarini anglatishi ko'rsatilgan.

Jamo'a - ma'naviy-axloqiy birlashma, insonlarga xos bo'lgan umumiy istiqomat qilishning obyektiv xususiyati, mehnatni tashkil etish, bo'sh vaqt, moddiy va ma'naviy tovarlarni tarqatish usuli, iste'mol shakllari, huquqiy, axloqiy va estetik xulq-atvor normalariga rioya qilishni ta'minlaydigan munosabatlar tizimidir.

Jamoatchilik - ijtimoiy foydali faoliyatda obyektiv ravishda tarbiyalanadigan, me'yoriy munosabatlarni ta'minlaydigan odamlarning umuminsoniy xususiyatidir. Shuning uchun ham mazkur shaxsiy xususiyat odamlarning ijtimoiy yo'nalishi va pedagogik tizimga qaramasdan maqsadli tarbiya predmeti bo'lishi lozim.

O'quvchilarning axloqiy tarbiyasiga asoslangan muhitdagi jamoaviy munosabatlar, har qanday boshlang'ich sinf o'quvchisi layoqatida namoyon bo'ladigan, keyinchalik qobiliyat bilan rivojlanishi mumkin bo'lgan, tengdoshlar guruhida bolaning o'zini o'zi anglash shartlaridan biri bo'lishi mumkin. Bolaning shaxsiy kechinmalari boshqa bir bolaga yo'naltirilishi juda muhimdir, chunki bu boshqa bolaga hissiy yo'naltirish jarayoni bo'lib, u kichik maktab yoshidagi bolaning

tengdoshlar guruhiga kirishini - adaptatsiyasini osonlashtiradi va unda bo'lishini nisbatan qulayligini ta'minlaydi.

Biroq, bolaning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasiga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj, ta'lim tizimiga qo'yilayotgan yangi talablar sharoitida bolani ijtimoiylashtirish zarurati sababli kuchayib boradi.

Bunday tizimning rivojlanishi bir qator qarama-qarshiliklarni bartaraf etishni o'z ichiga oladi. L.M.Fridman va I.Y.Kulaginning fikricha, bolaning ma'lum bir yoshdagi submadaniyatning odatiy vakili sifatida qarashlari va uning individual xususiyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik. Boshqacha qilib aytganda, pedagog tarbiyachining bolaga bo'lgan munosabatida, ushbu yoshdagi bolalarga nima yoqishi va yoqmasligi, ularga nimalarni o'rgatish kerakligi, ular nimalarni kutishlari va hokazolar haqidagi fikrlari, ya'ni o'qituvchining ongidagi "ideal" tasviri bilan belgilanadi. Pedagog bolani idealga muvofiqligiga erisha turib, uni nafaqat individualligiga e'tibor qaratadi, balki uni rad ham etadi.

Bolaning tabiiy ravishda o'z imkoniyatlarini bolalar jamoasida amalga oshirishga intilishi nazariy va amaliy tadqiqot natijalariga ko'ra jamoa hayotida bolaning o'ziga xosligini saqlab qolishning eng optimal yo'li hisoblanadi. Bu esa shaxsning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy moslashuv - individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni, odatda individning o'z faoliyatini va o'zini o'rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o'zgartirish davrlari bilan bog'laydilar. Moslashish jarayonining ijtimoiy muhitga faol ta'sir etish ko'rinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilish ko'rinishi bo'ladi. Ijtimoiy moslashish shaxs ijtimoiylashuvining asosiy ijtimoiy-psixologik omillaridan biridir. Jamoa yoki jamiyatdagi munosabatlar, an'analar o'ziga xos madaniy me'yorlarga asoslanadi. Ushbu nuqtai nazardan shaxsning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi tushunchasini izohlash ehtiyojini paydo qiladi.

Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik shaxsning ma'lum bir jamiyat, jamoa yoki ijtimoiy institutlar madaniy hayoti, qadriyatlari, munosabatlari, me'yorlari va an'analarini qabul qilish hamda moslashish jarayoni hisoblanadi. Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik mazmuniga shaxsning ma'lum bir jamoadagi mavjud madaniy me'yorlari asosida o'z xulq-atvoriga o'zgarish kiritishi yoki jamoa madaniy tizimlar transformatsiyasi bilan bir qatorda yangi madaniy va ijtimoiy munosabatlar tizimining yaratilishi, jamiyat hayotida yangi madaniy, ma'naviy, iqtisodiy o'zgarishlar yuzaga kelishi kabi jarayonlar ham kiradi. Bu jarayonda asosiy vazifani refleksiv jarayon natijasida o'zi va sotsiumni o'zgartirish ehtiyojini anglagan individ bajaradi. Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik shaxs va jamoaning o'zaro aloqadorligini taqozo etishi bilan tavsiflanadi. Shaxsning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligidagi ishtiroki passiv yoki faolligi bilan farqlanadi. Ya'ni passiv ishtirokchi jamoadagi madaniy muhitga nisbatan ko'nikma hosil qiladi va madaniy me'yorlarni qabul qiladi. Faol ishtirokchi esa jamiyatdagi ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik me'yorlarni o'zgartirishga va o'zi yoki ma'lum bir guruh me'yorlari, tartiblarini jamoa hayotiga singdirishga harakat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy–kommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayonini amalga oshirish uchun ushbu jarayonni harakatga keltiruvchi kuchlar – ziddiyatlarni aniqlashtirib olishimiz lozim bo'ladi. Ayni vaziyatni harakatga keltiruvchi kuchlar sifatida ijtimoiy talablar (jamiyat tomonidan har bir a'zosiga qo'yiladigan talablar) hamda shaxsning ichki imkoniyatlar (muloqotga kirishuvchi shaxsning mazkur vaziyatga doir bilimlar doirasi, muloqot qilish imkoniyatlari, nutq imkoniyatlari, muloqotga kirishuvchanlik darajasi, yosh xususiyatlari, individual xususiyatlari) o'rtasidagi ziddiyatlar, ya'ni nomutanosibliklar o'quvchilarni yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga undaydi.

Jarayonni harakatga keltiruvchi yana bir ziddiyat bu obyektiv omillar (tashqi muhitdan ta'sir etuvchi kuchlar, jamiyatda kommunikativ jarayonni tartibga solib turuvchi omillar) hamda subyektiv omillar (muloqot ishtirokchisining hissiy kechinmalari, xarakter xususiyati, muloqotga va muloqotdagi opponentga shaxsiy munosabati) o'rtasidagi ziddiyatlardir. Ushbu ziddiyatlar ham o'quvchilarni ijtimoiy–kommunikativ vaziyatga nisbatan yangi ko'nikmalarni egallashlarini talab etadi.

Shaxsning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish quyidagi o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan bosqichlarda kechadi: 1-bosqich: anglash bosqichi; 2-bosqich: baholash bosqichi; 3-bosqich: qiyoslash bosqichi; 4-bosqich: affektiv bosqich; 5-bosqich: reaksiya bosqichi; 6- qaror qabul qilish bosqichi.

O'quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligi amalga oshirilishi, xususiyatlari va belgilariga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Jumladan:

Amalga oshirilishiga ko'ra: ixtiyoriy, majburiy.

Faoliyat mazmuniga ko'ra: bunyodkor, vayronkor.

Faoliyat shakliga ko'ra: faol, passiv, barqaror, o'zgaruvchan.

Faoliyat turiga ko'ra: kasbiy, rasmiy, ijtimoiy-psixologik, kognitiv, individual.

O'quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligi ularning "adaptatsiyaga moyilligi" tushunchasiga bog'liq. Adaptatsiyaga moyillik yoki beriluvchanlik uning tashqi olam ta'sirlariga javoban o'z-o'zini o'zgartirishga bo'lgan tayyorlik darajasi bilan belgilanadi. Ya'ni shaxsning yangi muhit, yangi jamoa va tashqi olamda mavjud bo'lgan ijtimoiy-madaniy me'yorlarni qabul qila olish va ularga moslashishi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-madaniy muhitni quyidagicha tarkiblashtirish adaptatsiya jarayonining yengil kechishiga yordam beradi: Predmetli xarakterdagi ijtimoiy-madaniy muhit; Madaniy kommunikativ muhit; Ijtimoiy madaniy me'yor, qoida va tartiblar; madaniy qadriyatlar; san'at asarlari.

Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikning yana bir xususiyati shundaki, shaxs jamiyatdagi qadriyatlar tizimini o'zlashtirib boradi va o'z navbatida shaxs qadriyatlari tizimi u a'zo bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilinadi. Ushbu jarayon o'z ichiga ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimining o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirini qamrab oladi. Jamoada ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik rivojlanishi quyidagi bosqichlarda kechadi:

1-bosqich: jamoa rahbari faoliyatining ijtimoiy-kommunikativ kompetentligi talablar va me'yorlar jamoa rahbari tomonidan kiritiladi va ushbu jarayonning amalga oshirilishi ham jamoa rahbari tomonidan nazorat qilib boriladi.

2-bosqich: jamoa a'zolari orasidan etishib chiqqan liderlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi bilan kechadi. Ya'ni ijtimoiy-madaniy munosabatlar va muhit jamoa liderlari tomonidan tartibga solib boriladi. Jamoa rahbarining talablari va nazorat jamoa liderlari vositasida amalga oshiriladi.

3-bosqich: jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi. Ya'ni jamoadagi munosabatlar qadriyatli asosga ega bo'ladi, ijtimoiy-madaniy muhit va munosabatlar jamoa a'zolari tomonidan jamoaviy tarzda amalga oshiriladi va nazorat qilinadi.

Model, asosan, namoyish uchun taqdim etiladigan yoki amalga oshiriladigan tadqiqot obyekti belgilarini o'zida aks ettiruvchi tizim yoki kompleks tushunchani anglatib, u bizga obyekt o'rnini qisman to'ldirib, aniqroq ma'lumot olishga yordam beradi. Keng ma'noda model - bu biror bir obyekt, jarayon yoki hodisaning tasviri yoki analogi (xayoliy yoki shartli: tasvir, tavsif, sxema, chizma, grafik, reja, xarita va shu kabilar) bo'lib, "asl" obyektning o'rnini bosish uchun ishlatiladi. Ushbu model obyektning (jarayon, hodisa yoki vaziyatning) asosiy tarkibiy qismlarini va ularning o'zaro bog'liqligini sxematik shaklda aks ettiradi. Modellashtirish usuli yordamida empirik va nazariy nuqtai nazarlarni birlashtirish orqali pedagogik obyektning o'rganish jarayonida eksperiment, mantiqiy tuzilmalar va ilmiy abstraktlarni yaratish jarayonlarini tashkil etish imkoniyati mavjud bo'ladi. Imitatsion modellar - o'quvchilarni turli ijtimoiy vaziyatlarga imitatsiyasini amalga oshirish orqali ularni muloqotga hamda ijtimoiy vaziyatlarga tayyorlashni nazarda tutadi.

Dissertatsiyaning **“Ona tili darslarida o'quvchilar ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda imitatsion modellardan foydalanish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda imitatsion modellardan foydalanish jarayonini tizimli tashkil etish modeli taqdim etilgan va ona tili darslarida o'quvchilar ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga doir imitatsion modellar va imitatsion modellar asosida o'quvchilar ijtimoiy - kommunikativ kompetentligini rivojlantirish dasturi mazmuni yoritilgan.


Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli maqsadli, metodologik, strategik va diagnostik-natija bloklardan iborat (1-rasmga qarang).

Modelning maqsadi: Boshlang'ich sinf ona tili darslarida imitatsion modellardan foydalangan holda o'quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish. Maqsadli blokni belgilashda ijtimoiy ehtiyojlar, Davlat ta'lim standarti talablari, subyektiv ehtiyojlarga asoslanildi.

Metodologik blok o'quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga doir nazariy yondashuv va tamoyillarni o'zida ifodalaydi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning ijtimoiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni tizimlilik, uzluksizlik, shaxs ehtiyojlari va jamiyat talablarining birligi, ijtimoiylashuv tamoyillari asosida amalga oshirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonida imitatsion, integrativ, aksiologik, akmeologik, modulli, ko'rgazmali-illyustrativ, texnologik va ijodiy yondashuvlardan foydalanildi.



1-rasm. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli

Modelning navbatdagi qismi strategik blok bo‘lib, ushbu blokda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida imitatsion modellar asosida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga doir asosiy jarayon, va jarayonni harakatga keltiruvchi kuchlar, metodikani amalga oshirish bosqichlari, foydalaniladigan imitatsion modellar hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikning rivojlanganlik mezonlari ushbu blokdan o‘rin olgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikning rivojlanganlik mezonlari sifatida o‘quvchilarning ijtimoiylashganligi, muloqot jarayonida o‘z fikrlarini erkin bildira olishi, ijtimoiy muloqot madaniyatining shakllanganligi kabilar tanlab olindi.

Mazkur mezonlar asosida boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini shakllantirishga doir imitatsion modellar quyidagicha guruhlariga ajratib olindi:

1-guruh: ijtimoiylashuviga yordam beruvchi imitatsion modellar.

2-guruh: fikrlarini erkin bildira olishga o‘rgatuvchi imitatsion modellar.

3-guruh: ijtimoiy muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi imitatsion modellar.

Modelning navbatdagi bloki diagnostik natija blok bo‘lib, ushbu blok o‘z ichiga tadqiqot muammosini diagnostik o‘rganish maqsadida tashkil etiladigan pedagogik eksperiment bosqichlari, foydalaniladigan diagnostik metodikalar hamda o‘quvchilarda ijtimoiy kommunikativ kompetentlikning rivojlanganligini baholash darajalarini qamrab olgan.

O‘quvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlanganlik darajalarini o‘rganish maqsadida quyidagi diagnostik metodikalardan foydalanish belgilandi:

“Men qanday bolaman?” metodikasi;

“O‘rtog‘imga yordam ber” metodikasi;

“Nimani his qilayapsiz?” metodikasi.

Mazkur modelda “Ijtimoiy-kommunikativ kompetentligi rivojlangan o‘quvchisi shaxsi” yakuniy kutiladigan natija sifatida belgilangan.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga doir imitatsion modellashtirish jarayonida quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilish talab etiladi:

Ijtimoiy munosabatlarni imitatsion modellashtirish tamoyili;

model mazmunining muammoliligi tamoyili;

ishtirokchilarning hamkorlikdagi faoliyatlarini tashkil etish tamoyili;

dialogik muloqotni yo‘lga qo‘yish tamoyili;

imitatsion o‘yinlarni tashkil etishda o‘quvchilar faoliyatiga tayanish tamoyili.

Ta’lim jarayonidagi imitatsion modellar quyidagi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi: o‘quvchilarga ijtimoiy faoliyat va uning maqsadlari haqida yaxlit tasavvurni hosil qilish; ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish; ijtimoiy masalalarga doir individual va jamoaviy qarorlar qabul qilishga o‘rgatish; o‘quvchilarni faol ijtimoiy faoliyatga va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga tayyorlash; ijtimoiy-kommunikativ muloqotga doir motivatsiya hosil qilish; o‘quvchilarda ijtimoiy hamkorlik, hamfikrlilik va empatiyaga doir ko‘nikmalarni tarkib toptirish.

Imitatsion modelni amalga oshirish jarayoni quyidagi bosqichlarda kechadi: tayyorgarlik, imitatsiyani amalga oshirish va tahlil, muhokama, baholash bosqichi.

Tayyorgarlik bosqichida o'qituvchi imitatsion mashqlar uchun zarur bo'lgan jihozlarni, tarqatma materiallarni, ko'rsatmalar va topshiriqni bajarish algoritmini, baholash mezonlarini ishlab chiqadi. Shu bilan birga o'quvchilar ham maxsus topshiriqlar orqali imitatsion mashqlarni amalga oshirishga tayyorgarlik ko'radilar. Guruhlarga ajratishda o'qituvchi quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:

1. Raqamlar asosida guruhlariga ajratish.
2. O'quvchilarni rangli kartochkalar asosida guruhlariga ajratish.
3. O'quvchilarning uy yoki yovvoyi hayvonlarni yaxshi ko'rishiga, jinsiga ko'ra, o'tirgan o'rniga ko'ra ham guruhlariga ajratishi mumkin.

Imitatsion modelni amalga oshirishning 2-bosqichida model bevosita amalga oshiriladi. Ya'ni o'qituvchi quyidagi vazifalar ketma-ketligini amalga oshiradilar:

1. O'quvchilarga imitatsion modelning maqsadi tushuntiriladi.
2. O'qituvchi model talabiga ko'ra o'quvchilarni guruhlariga ajratadi.
3. O'quvchilarga rollar taqsimlanadi.
4. Har bir o'quvchining bajaradigan vazifasi tushuntiriladi.
5. Zaruriy tarqatma materiallar va topshiriqlar tarqatib beriladi.
6. Tayyorgarlik uchun vaqt ajratiladi.
7. Topshiriq navbat bilan tekshiriladi.

Modelning uchinchi bosqichida o'quvchilar yoki jamoalarning topshiriqlarni bajarish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. O'yin natijalari o'quvchilar bilan muhokama qilinadi va baholash ishlari amalga oshiriladi. Yakunda g'oliblar va faol o'quvchilar rag'batlantiriladi, kamchiliklar haqida munozara o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish imkoniyati juda kengdir. Zero, kommunikativlikning asosi bo'lmish og'zaki nutqni shakllantirish ona tili ta'limining bosh maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda foydalaniladigan ijtimoiy vaziyatlarga imitatsiyani amalga oshiruvchi modellar ta'limning qiziqarliligini, samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o'quvchilarni ijtimoiy muhitga moslashtirishga, ularda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga, ijtimoiy madaniyat ko'nikmalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Imitatsion modellar asosida o'quvchilar ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi ona tili ta'limi mazmuniga muvofiq ravishda uch bosqichda amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlarni quyida keltirib o'tamiz: tayyorgarlik bosqichi, motivatsiya bosqichi, realizatsiya bosqichi.

Tayyorgarlik bosqichida o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ijtimoiy muloqot ehtiyojlarini o'rganadi;
- o'quvchilar imkoniyatlari va ehtiyojlari hamda ona tili dasturiga muvofiq ravishda darsda foydalaniladigan imitatsion modelni tanlaydi;
- imitatsion modeldan foydalanish uchun zaruriy jihozlarni tayyorlaydi;
- imitatsion model uchun taxminiy rollar taqsimotini belgilab oladi.

Motivatsiya bosqichida o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

o'quvchilar bilan kirish suhbatini o'tkazib ularni imitatsion model maqsadi va mazmuni bilan tanishtiradi;

motivatsiya berish maqsadida filmlar, surat va illyustratsiyalardan foydalanadi; imitatsion model uchun dekoratsiyalar va tarqatma materiallar tayyorlash orqali ularning qiziqishlarini oshiradi.

Realizatsiya bosqichida boshlang'ich sinf ona tili darslari mavzusiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan dastur amalga oshiriladi. Mazkur dastur "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida imitatsion modellar asosida o'quvchilar ijtimoiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish" deb nomlangan bo'lib, ushbu dasturning samaradorligini oshirishda qator pedagogik talablarga amal qilish muhim hisoblanadi.

